

SURROGAT ONALIKNING AXLOQIY MASALALARI


*Toshkent Davlat Stomatologiya instituti
Davolash ishi fakulteti 102-b guruh talabasi
G'ulomboyeva Nafosatxonning tibbiy etika
va deontologiya fanidan maqolasi*

Annotatsiya: Albatta, har bir zamonaviy odam surrogat onalik nima ekanligini biladi. U haqidagi sharhlar va fikrlar shu qadar xilma-xilki, ularning barchasini sanab o'tish juda qiyin. Ba'zilar bunga mutlaqo qarshi va surrogat onalikni inkubator sifatida tashqi ayoldan foydalanish deb aytishadi. Ular bepushtlik holatida bolani mehribonlik uyidan olish kerak, deb hisoblashadi. Boshqalar, surrogatlik farzandsiz er-xotining baxt berish va bu harakatni ma'qullash imkoniyati deb hisoblashadi. Zamonaviy dunyoda bu hodisa haqida bir nechta stereotiplar mavjudligi sababli fikrlar juda xilma-xildir.

Kalit so'zlar: surrogat onalik, bepushtlik, embrion, nasablarning chalkashuvi.

KIRISH

Surrogat" so'zi lotinchadan olingan so'z bo'lib – "boshqasining o'rniga qo'yilgan" degan ma'noni bildiradi. Hozirda bizda keng tarqalayotgan "surrogat ona" degan ibora ham homilador bo'lib, farzand tug'ishda onaning o'rniga foydalanilgan ayol nazarda tutiladi. Bunda erning spermasi va xotining tuxum hujayrasidan bo'lgan embrionni rivojlantirish uchun boshqa ayolning bachadoniga o'tkaziladi. Ko'pincha surrogat onalik pul evaziga, ba'zan ko'ngilli tarzda ham amalga oshiriladi.



Asosiy: Ushbu amaliyot shariatimizning umumiy qoidalariga ko‘ra harom sanaladi. Bunda uni pul evaziga bajariladimi yoki ko‘ngilli tarzdami farqi yo‘q. Chunki ushbu amaliyotda erkak bilan bachadoni ijaraga olingan ayolning o‘rtasida nikoh bo‘lmaydi. Alloh taolo Qur‘oni karimda mo‘minlarni vasf qilib shunday degan:

ابْتَعَى فَمَنْ * مُلُومِينَ غَيْرُ فَإِنَّهُمْ أَيَّمَانُهُمْ مَلَكَتْ مَا أَوْزَوَّاجِهِمْ عَلَىٰ إِلَّا * حَافِظُونَ لِفُرُوجِهِمْ هُمْ وَالَّذِينَ ﴿٥-٧﴾ (المؤمنون)

ya‘ni: “Ular avratlarini (haromdan) saqlovchidirlar. Illo, o‘z jufti halollari va qo‘l ostidagilar (cho‘rilar) bundan mustasnodir. Bas, albatta, ular malomat qilinuvchi emaslar. Kimki shundan o‘zgani istasa, bas, ana o‘shalar haddan oshuvchidirlar” (Mu‘minun surasi, 5-7 oyatlar).

Agar nikoh bo‘lgan taqdirda (masalan, o‘sha ayol erkakning ikkinchi xotini bo‘lsa) ham mazkur amaliyot halol bo‘lmaydi. Chunki bu nasablarni chalkashishiga olib keladi.

Shu va bundan boshqa omillarni hisobga olib, zamonamizning barcha ulamolari, ko‘plab fatvo uyushmalari surrogat onalikni harom ekaniga fatvo berganlar. Vallohu a‘lam

“Surrogat onalik” muammosi yuridik va axloqiy jihatdan puxta ishlab chiqilmagan. Surrogat onalik-juftning bepushtligini davolashning yangi e‘tirof etilgan usuli. Surrogat onalikning har xil shakllari mavjudligiga qaramay, ularning barchasi homilani oy-kuniga yetkazib tug‘uvchi ayol bilan uning “aytilgan” ota-onasi o‘rtasida tuzilgan bitimga asoslanadi. Mazkur bitimga binoan surrogate ona homilani oy-kuniga yetkazib tug‘adi va “aytilgan” ota-onasiga topshiradi.” An‘anaviy yoki “qisman” ahdlashuvlar surrogat onaning tuxum hujayrasidan va “aytilgan” otaning urug‘idan foydalanishni nazarda tutadi.” Gestatsion” yoki “to‘la” surrogat onalikda surrogat ona bilan bola o‘rtasida hech qanday irsiy qarindoshlik mavjud bo‘lmaydi. Surrogat onaning bachadoniga probirkada urug‘lantirilgan va aytilgan ota-onaning gametalaridan tarkib topgan zigota (urug‘lantirilgan tuxum hujayrasi) kiritiladi. Nasl qoldirish jarayonlariga tijoratning aralashuvi xavfi surrogate onalikning har bir bosqichini nazorat qilish, huquqiy va axloqiy tartibga solishni taqozo etadi. Milliy qonunchiligimizda “surrogat onalik” “masalasi huquqiy tartibga solinmagan.

Surrogat onalik to‘g‘risidagi bitimning “tijorat” yoki “notijorat”, ya‘ni “altruistik” asosdagi turlari farqlanadi. Tijoratga asoslangan surrogate onalikda surrogat ona mazkur xizmatni ko‘rsatish natijasida haq oladi yoki muayyan moddiy naf ko‘radi. Notijorat yoki altruistik asosdagi surrogat onalik homiladorlik, masalan, tibbiy parvarish bilan bog‘liq harajatlar qoplanishi yoki chekkan jismoniy azob-uqubatlari uchun kompensatsiya to‘lanishi mumkin. Bir ayolning tuxum hujayrasi probirkada urug‘lantirilib, so‘ng embrion boshqa ayolning bachadoniga ko‘chirib o‘tkazilsa, bunday hollarda o‘z tuxum hujayrasini bergan ayol yoki

ummuman uchinchi ayol “ijarachi”, yollovchi bo’lishi mumkin. Shunday qilib, bunday aralashuvlar natijasida dunyoga kelga bolaning biryo’la besh ota-onasi: 3 biologik ota-ona (sperma donori bo’lgan erkak, tuxum hujayrasi donori bo’lgan ayol va homilani qornida parvarish qilib, tug’ib bergan ayol) hamda 2 ijtimoiy ota-ona, ya’ni buyurtmachilar bo’lishi mumkin. Surrogat ona vazifasini bepust ayolning onasi yoki singlisi bajargan holatlar ham ma’lum. Bunda qarindoshlik aloqalari o’ta darajada chalkashib ketadi-surrogat ona tug’ilgan bolaning ma’lum ma’noda onasi va buvisi yoki xolasi bo’lib qoladi.

Surrogat onalik masalasi juda ko’p axloqiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, kim uchundir bola tug’ib berish to’g’risida erkin qabul qilingan qarorga kimdir nasl qoldirish va o’z taqdirini hal qilish shakli deb qaralishi mumkin. Boshqa tomondan, mazkur qarorga ayollarning qadr-qimmatini kamsitish va ularni ekspultatsiya qilish shakli deb qaralishi mumkin. Axloq sohasidagi ayrim mutaxassislarining fikricha, tomonlar o’rtasidagi shartnomaga yoki tijoratga asoslangan bitimlar inson qadr-qimmatini e’zozlash asosiy prinsiplariga zid hisoblanadi, chunki oilaviy munosabatlar sohasiga tijorat manfaatlarining kirib kelishiga yo’l ochadi. Bunda “altruistik” sovg’alar, ya’ni boshqa shaxslar foydalanishi uchun o’z nasl qoldirish qobiliyatini bepul taqdim etish hollariga yo’l qo’yilishi mumkin.



Xulosa: Surrogat onalik muammosi o’ta ziddiyatli muammo bo’lib, bir-biriga zid huquq va manfaatlar bilan bog’liq. Surrogat onalik to’g’risidagi qonun loyihasini tuzishda e’tiborga olish lozim bo’lgan kamida uchta har xil qarash mavjud. Bu yollovchi juft (yoki shaxs)ning huquqlari; surrogat ona sifatida o’z xizmatini taklif qilgan ayol huquqlari; tug’ilgan bolaning huquqlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.google.com/url?sa=i&source=web&cd=&ved=0CAMQw7AJahcKEwiY1921saz-AhUAAAAAHQAAAAAQAg&url=https%3A%2F%2Fm.aniq.uz%2Fuz%2Fyan-giliklar%2Fsinglim-uchun-surrogat-onalik-qilsam-buladimi&psig=AOvVaw01dxTcmPUV9VCZuykIvJy9&ust=1681663492133168>
2. <https://sof.uz/uz/post/islom-dunyosidagi-eng-asosiy-10-ta-bioetika-muammolari>
3. ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА РАҚАМЛАШТИРИШ: Сиддиқов Нурали Нишоналиевич, ТДСИ Ижтимоий фанлар биоэтика курси билан кафедраси катта ўқитувчиси
4. НН Сиддиқов - Научно-практическая конференция, 2022
5. СОЦИАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ МОЛОДЫХ СОБСТВЕННИКОВ В СФЕРЕ СРЕДНЕГО И МАЛОГО БИЗНЕСА НН Сиддиқов - Социосфера, 2020